

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ILK YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI
O'STIRISHNING TA'LIMIY ASOSLARI**

Norqo'ziyeva Manzura

JDPU, p.f.d. (PhD)

Xayitboyeva Gulbahor

JDPU Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Nutqni o'stirish, ona tili negizida rivojlanayotgan til ongi umuman olganda nutq o'stirishni egallahsha yordam beradi, xuddi shuningdek, tafakkurni rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ilk yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning didaktik asoslari xaqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: til ongi, predmetlarning shakli, fikrlash, insonning fikrlarini , hissiyotlarini, xohish - istagini ifodalash yoki uning so'zlash jarayoni, faylasuflar, lingvistlar, psixologlar, ko'rgazmali obratzli harakatlar.

Аннотация: Развитие речи, языковое сознание, развивающееся на основе родного языка, помогает овладеть развитием речи в целом, а также развитием мышления. В данной статье говорится о дидактических основах развития речи детей в дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова: языковое сознание, форма предметов, мышление, выражение мыслей, чувств, желаний человека или процесс его речи, философы, лингвисты, психологи, выразительные образные действия.

Abstract: The development of speech, the language consciousness that develops on the basis of the mother tongue helps to master the development of speech in general, as well as the development of thinking. This article talks about the didactic foundations of the development of children's speech in preschool educational institutions.

Key words: language consciousness, form of objects, thinking, expression of human thoughts, feelings, desires or the process of his speech, philosophers, linguists, psychologists, expressive figurative actions.

Til kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sanaladi. Nutqni o'stirish, ona tili negizida rivojlanayotgan til ongi umuman olganda nutq o'stirishni egallahsha yordam beradi, xuddi shuningdek, tafakkurni rivojlantirishga ko'maklashadi. Nutqni o'stirishdagi nutqiy faoliyatni shakllantirishdagi asosiy muammo mavjud ko'nikmalarga tuzatish kiritishning maqbul usullari ona

tiliga xos bo'lgan fikrlashdan o'rganilayotgan tilga xos bo'lgan fikrlash jarayonlariga o'tishdagi muammolardir.

So'zlovchi insonning fikrlarini, hissiyotlarini, xohish - istagini ifodalash yoki uning so'zlash jarayonining o'zi azaldan faylasuflar, lingvistlar, psixologlar e'tiborini o'ziga jalg qilib kelgan. XX asrdan boshlab tadqiqotchilar ushbu jarayonning ikki tomoniga ham, ya'ni so'zlovchining fikri qanday qilib jaranglayotgan so'zga aylanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Psixologiyada til insoniy muloqotda qo'llaniladigan belgilarning (tovushlar, so'zlar, iboralar, ayrim elementlarni birlashtirish va o'zgartirish qoidalari) eng muhim tabiiy tizimi sifatida tushuniladi. Nutq esa insonlarning tildan ta'limg olish ya'ni axborotni qabul qilish va uzatishda foydalanish jarayoni sifatida tushuniladi.

Ta'lim amaliyotida "til" so'zi qo'llanilganda ko'pincha til bilan birga nutq ham tushuniladi. Bu shu bilan izohlanadiki, bola nutqi undan tashqaridagi til tizimi bilan belgilanadi. U nutqni egallar ekan, ushbu til mavjudligining qoida va usullarini ham egallyaydi. Har bir so'zning mazmunini bir-biriga o'xshash narsalarning umumlashtirishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun bu yoshdag'i bolalar juda ko'pgina so'zlarning mazmunini mustaqil ravishda tushuna olmaydilar. Natijada ular ayrim so'zlarni o'rinsiz ishlata dilar. Tarbiyachilar bola nutqida ana shu tomoniga ham nazar solib borishi kerak. Agar bola, yangi o'zlashtirgan ayrim so'zlarni noto'g'ri ishlata digan bo'lsa, darxol unga tushuntirish lozim bo'ladi. Bu yoshdag'i bolalar nutqi anchagini taraqqiy etgan bo'lsa ham ularning gaplashishlariga qarab turib ular nutqida anchagini so'z taraqqiy etgan bo'lsa ham ularning gaplashishlariga qarab turib ular nutqida anchagini so'z etishmasligini payqash mumkin. Ilk yoshdag'i bolalarga harakatning shakllanishi orientirovka faoliyati xususiyati uzgarishi bilan uzbek bog'liq. Bola u yoki bu xarakatni amalga oshirish uchun avvalo predmet bilan tanishadi, unga ko'z yogurtiradi, qo'liga oladi va hokazo. Bolani predmetlarning shakli, rangi vazni bilan tanishtirishda kattalar amalga oshiradilar. Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlariga jalg etilgan predmetlar hodisalar sifatlar munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi, buni bola ko'rgazmali obrazli harakatlar ekanini bilan tushunamiz. Shu tufayli ham bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida mavhum tushunchalar deyarli uchramaydi. Agarda 3-7 yoshdag'i bolalardagi berilgan topshiriplarda nutqiy faoliyatning elementi bo'l mish so'z bilan muayyan amallarni bajarish talab etilsa, masalan gap tarkibidan so'zlarni ajratib olish vazifasi berilsa ya'ni «Koptok yumalab ketdi» degan gap berilsa bola bu gapdagi bitta so'z «Koptok yumalab ketdi» degan so'z borligini aytdi. Tarbiyachilar, ota-onalar bu

yoshdagi bolalarga gap tarkibidan barcha turdagi so'zlarni ajratib olish ko'nikmasini shakllantirilishi lozim.

Buning uchun ularga so'zlarning mezonlarini so'z doim muayyan mazmunga ega ekanligini anglashga yordam berishi lozim. Shunday qilib asosiy muomula vositasi bo'lgan nutq bola psixikasining o'sishida benihoya katta rol o'ynaydi. Bog'cha va oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya va bog'chadagi ota tilidan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulotlar tufayli bola nutqini normal o'stirish mumkin.

Bola bog'cha yoshining oxirgi bosqichida kelganda og'zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo'lishi lozim. Bu esa maktabda o'qish faoliyatini yaxshi o'zlashtirish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, til insonga aqliy faoliyatni rejalashtirish, aqliy sa'y - harakatlar natijalarini kelgusi avlodlarga qoldirish imkonini beradi. Insonning o'z o'tmishi va buguni haqida bilganlari, uning kelgusida qoldiradigan bilimlarining barchasi til orqali amalga oshadi. Dunyoqarashlar, ma'naviy va estetik ideallar, ahloq me'yorlari – bularning barchasi til va nutqiy muloqot orqali yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1. Sh. M. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". O'zbekiston -2019y
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 2020-yil 22-dekabr, 802-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, T- 2022 y.
4. Abramova. G.S. "Prakticheskaya psixologiya". M.:2001.
5. Adizova.T.M. "Psixokorreksiya" T.: "Iqtisod-moliya" 2006. (58b)
6. G'oziyev E. . Umumiyl psixologiya. T.: "Universitet" 2002 y.
7. Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
8. D.R. Babayeva. "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" T.: "Barkamol avlod fayz" 2018 y. Darslik.
9. Yo`ldoshev J. "Ta`lim yangilanish yo`lida" T.: O`qituvchi. 2000 yil
10. T G.V.Eldasheva, G.Karimova. "Tarbiyachining kasbiy maxorati va kompitentligi" moduli. T. 2018y. 155 bet

11. Abduvalieva M.I. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasbiy moslashuvini shakllantirish va rivojlantirish: Ped.fanl.nomz. ... diss. – T.: 2008. – 134 b.
12. Azizzodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. – 52 b.
13. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – T.: Fan, 2004.B –73-80.